

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
MALAKA OSHIRISH FAKULTETI**



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA FANIDAN TALABALAR
MUSTAQIL
ISHINI BAHOLASHNING REYTING TIZIMI TO‘G‘RISIDA
NIZOM**

Toshkent – 2023-yil

**Toshkent tibbiyot akademiyasi akusherlik va ginekologiya fanidan
talabalar mustaqil ishini baholashning reyting tizimi to'g'risida**

NIZOM

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» Qonunlarining ta'lim sifatini ko'tarishga qaratilgan tadbirini yanada samarali yo'lga qo'yishga yo'naltirilgan bo'lib, u Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi 2009 yil 11 iyundagi 204-sonli, 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli, 2013 yil 13 dekabrda 470-sonli va 2014 yil 26 dekabrda 14 -sonli buyruqlari va Nizomlariga muvofiq ishlab chiqilgan va undan tibbiyot oliy o'quv yurtlarida talabalar bilimni baholashda me'yoriy hujjat sifatida foydalaniladi.

1. Talabalar bilimni mustaqil ish orqali baholashdan maqsad ta'lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta'lim standartlariga muvofiq tegishli bilim shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi mustaqil ish orqali baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta'lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta'minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o'zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma'lum qilish;

ye) talabalarning fanlar bo'yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta'minlash;

II. Modul bo'yicha mustaqil ta'lim shakllari va ishlar turlari ro'yhat:

moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishni tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor-pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va navbatchilik daftarlarida aks ettirish;

- bemorlarni parvarish qilishda davolovchi yoki navbatchi xamshira bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarini suxbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayierlash;

- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida sase-study) yechish.

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Modul bo'yicha mustaqil ta'limni tashkil etish uchun tavsiya etiladigan o'quv-uslubiy ta'minot: qo'llanmalar, adabiyot, fotosuratlar, fantom, mulyaj, simulyatorlar, asbob-anjom, jadvallar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi testlar, kompyuter dasturlari, klinik modullar uchun kechki navbatchiliklar, volontyorlik, simulyatsion markazlarda ishlash va h.k.

III. MUSTAQIL ISH TURLARI VA UNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

3. Mustaqil ish jadvallari, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabaning mustaqil ishi O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 21.02.2005 yil 34-sonli buyrug'i va oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i bilan tasdiqlangan «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida Namunaviy nizom» asosida tashkil etiladi. Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting balining 55%dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

Akusherlik va ginekologiya kafedrasida talabaning mustaqil ishi 4-kurs talabalari amaliy sikl davomida 2 mustaqil ish va 5 kurs talabalari amaliy sikl davomida 1 mustaqil ish tayyorlashi lozimligini hisobga olib O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 28 fevralda o'tkazilgan "Respublikadagi ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni samaradorligini, pedagog-kadrlarning axborot texnologiyalari va chet tillarini bilish darajasini xamda ta'lim muassasalarida obodonlashtirish ishlarini kuchaytirish to'g'risida"gi majlis bayoni qarorlari ijrosini ta'minlash" haqidagi 2012 yil 19 martdagi 113-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida kafedra majlisida (- sonli bayonnoma asosida) talabalar 1 mustaqil ishni ikki tilda: o'zbek (rus) va ingliz tilida referat yoki prezentatsiya shaklida qabul qilinishi qaror qilindi.

Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va 2 yil mobaynida saqlanadi. 4-chi va 5-chi kurs talabalarining mustaqil ishi namunaviy dastur asosida ko'rsatilgan mavzular asosida amalga oshiriladi.

III. BAHOLASH TARTIBI VA MEZONLARI

4. Talabalarining mustaqil ish bilan shug'ullangandagi bilim saviyasi, fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

mustaqil ish - 5 ball

№	Baholash turi	Maksimal ball	Koeffitsient	Saralash bali
1.	TMI	5	0,05	2,75
	JAMI	100	1	55,0

5. Talabaning ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagicha baholanadi:

- 86-100 ball – «a'lo»
- 71-85 ball – «yaxshi»
- 55-70 ball – «qoniqarli»

Saralash bali 55 ballni tashkil qiladi.

6. TMI bo'yicha saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz deb hisoblanadi.

7. Talabaning mustaqil ish bo'yicha olgan bali mavzu bo'yicha JB ga qo'shib hisoblanadi.

8. TMIni baholash o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi guruh o'qituvchisi, kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinadi.

Kafedra mudiri t.f.d., prof.

F.I.Shukurov

O'quv va uslubiy bo'lim boshlig'i

F.X.Azizova

Malaka oshirish fakulteti dekani, prof

N.M.Nurillaeva